

## **SUG'URTADA SOHASINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI**

*Ikramova Karomat Mirsaidovna*

*Mustaqil izlanuvchi*

Hozir jamiyat va davlatning barcha sohalari raqamlashtirish jarayonlarini boshidan kechirmoqda, bu o'z navbatida barcha biznes jarayonlarining sezilarli o'zgarishlarni boshidan kechirishni nazarda tutadi. Sug'urta sohasiga moliyaviy texnologiyalarni qo'llash quyidagi tendensiyalarni nazarda tutadi, jumladan:

– barcha sug'urta xizmatlari va mahsulotlarini elektron polislar formatiga o'tkazish, yangi mahsulotlarni (jumladan, an'anaviy, shaxsiy sug'urta mahsulotlarining ko'plab turlari va mikrosug'urta toifasidagi mahsulotlarni) ishlab chiqarishni jadallashtirilishi;

– elektron to'lov xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish, sug'urtaning ko'p turlarida “narsalarni bog'lash” usullaridan foydalanishni faollashtirish;

– mijozlarga mahsulotlarni mustaqil ravishda tanlash, shakllantirish va o'zgartirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etuvchi “big data” texnologiyalardan samarali foydalanishning boshlanishi;

– savdo va xizmat ko'rsatishda chat-botlardan keng foydalanish (shu jumladan da'volarni hal qilishda), da'volarni hal qilish jarayonlarini raqamlashtirish.

Raqamlashtirish sug'urtalovchilarning sug'urtalanuvchilar va risklarning o'zlari bilan ishlash usullari va shakllarini o'zgartirishga olib keladi. Raqamlashtirishning o'sishi bilan sug'urtalovchilar tomonidan o'z mahsulotlarini sotishda raqobat ham kuchaymoqda va biznes yuritishning shunga o'xshash shakllari paydo bo'lishiga ishora qilishmoqda [1].

Zamonaviy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri informatsion texnologiyalaridan keng foydalanishdir. Informatsion inqilobi ta'sirida sodir bo'layotgan transformatsiyalar ko'lami raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan yangi iqtisodiy model – raqamli iqtisodiyotni shakllantirishni [www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

keltirib chiqardi [2]. Bunday texnologiyalar sug'urta bozorida oxirgi yillarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Ulardan foydalanish sug'urta faoliyatidagi ko'plab jarayonlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin [3].

Hozirgi vaqtda sug'urta bozorini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari raqamli iqtisodiyotning allaqachon o'rnatilgan terminologiyasi doirasida internetlashtirish, raqamlashtirish va sug'urta faoliyatini individuallashtirish sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan bir nechta hodisalardir, ularning ayrim xususiyatlarini biz 1-jadvalda keltirib o'tamiz

Sug'urta sohasida internetlashtirish yo'nalishlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi:

- mijozlarga sug'urtalovchilar va ular ko'rsatadigan sug'urta xizmatlari to'g'risida ma'lumot berish;
- sug'urta xizmatlari va mahsulotlarini sotish;
- salohiyatli mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash;
- sug'urta hodisalari va da'volarini ko'rib chiqish, hamda oqibatlarini bartaraf etish;
- sug'urta kompaniyalari va sug'urtalanuvchi mijozlar o'rtasida fikr-mulohazalar uchun kanal yaratish.

### 1-jadval

**Sug'urta sohasini raqamlashtirishn tavsifi [4]**

<b>Yo'nalish</b>	<b>Ta'rif</b>	<b>Qo'llaniladgan raqamli texnologiyalar</b>	<b>Sug'urta kompaniyasining asosiy auditoriyasi</b>
<b>Internet-lashtirish</b>	Sug'urta kompaniyasining biznes jarayonlarida internetdan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz aloqa texnologiyalari;	Tashqi – sug'urtalanuvchilar; Ichki – xodimlar, sug'urta agentlari

		bulutli texnologiyalar	
<b>Individual- lashtirish</b>	Sug'urtalanuvchilar va sug'urta obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarning eng keng to'plamini olish asosida individual sug'urta takliflarini (tarif bo'yicha, risklar jamlanmasi bo'yicha va boshqa shartlarga muvofiq) ishlab chiqish	Katta ma'lumotlar; Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz aloqa texnologiyalari	Tashqi – sug'urtalanuvchilar (shu jumladan salohiyatli mijozlar ham)
<b>Raqamlash- tirish</b>	Sug'urta kompaniyasining biznes jarayonlarida raqamli (raqamlashgan) texnologiyalardan foydalanish	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari; simsiz aloqa texnologiyalari	Ichki – xodimlar; tashqi – sug'urtalanuvchilar

Sug'urtada individuallashtirish muayyan sug'urtalanuvchilar uchun sug'urta xizmatlari bo'yicha individual takliflarni tayyorlashni, shuningdek, har bir sug'urtalanuvchiga nisbatan risklarni baholashni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Sug'urta xizmatlarini individuallashtirishga imkon beruvchi texnologiyalar qatoriga katta ma'lumotlar (Big Data), narsalar interneti, ko'rsatkichlarni yig'ish uchun raqamli qurilmalar, simsiz aloqa texnologiyalari va virtual haqiqatda ma'lumot to'plash kiradi.

Sug'urtani raqamlashtirish deganda sug'urtalovchining biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish tushuniladi. Bunga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi:

- buxgalteriya hisobi va hisobot berish tartiblari;
- maxsus vakolatli davlat organi bilan o'zaro hamkorlik;
- sug'urta qildiruvchi o'z zimmasiga olgan risklarni baholash (masalan, telematika kabi yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etilishi orqali);
- sug'urta xizmatlarini sotish (blokcheyn, smart-kontraktlar, smartfonlar uchun mobil ilovalar va boshqalar qo'llaniladi);
- da'volarni ko'rib chiqish (blokcheyn texnologiyalari, mobil ilovalar, telemeditsina, sug'urta da'volarini tasdiqlash uchun tegishli sohalar bilan o'zaro aloqalar asosida);
- hujjat almashinuvini amalga oshirish (elektron hujjat aylanishini yaratish, agentlar ishi uchun elektron raqamli platformalar, mijoz profilini yaratish va uning ma'lumotlarini himoya qilish uchun blokcheyndan foydalanish, ma'lumotlarni bulutli saqlash texnologiyalari).

Yuqorida olib borilgan tahlillar natijasida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot raqamli sug'urta konsepsiyasiga uning ikki tomonlamaligida ifodalangan yangi mazmuni olib kirdi.

Birinchidan, raqamli sug'urta – bu korxonalar va fuqarolar o'rtasida sug'urta manfaatlari mavjudligi va ixtisoslashtirilgan sug'urta fondini shakllantirish asosida ularni qondirish bilan belgilanadigan maxsus iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'ladigan sug'urta himoyasi mexanizmi sifatida sug'urtaning bir qismidir. Raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan xavflardan sug'urta himoyasi raqamli sug'urtaning birinchi qismini tashkil etadi. Agar ilgari raqamli sug'urta elektron risklarni va elektron tijorat risklarini sug'urtalashni o'z ichiga olgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda kiber risklarni sug'urtalash, internetdagi narsalar sug'urtasi (internet orqali boshqariladigan jismoniy va yuridik shaxslarning mulki), sun'iy intellektning uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi, hamda hali ham yashirin ochilmagan raqamli risklar sug'urtalashni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan sug'urta kompaniyalari tomonidan raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi, ulargayaqin istiqbolda quyidagilarni ko'shish mumkin:

- katta ma'lumotlar tizimlari;
- sun'iy intellekt va neyrotexnologiya;
- kvant texnologiyalari;
- yangi ishlab chiqarish texnologiyalari;
- sanoat interneti;
- robototexnika, biometrika va sensorli komponentlari;
- simsiz aloqa texnologiyalari;
- virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari.

Raqamli sug'urta shuningdek, korxonalar va aholining sug'urta himoyasiga bo'lgan ehtiyojlarini yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish, ya'ni sug'urta bozori va undagi munosabatlarni raqamlashtirish orqali qondirish bilan ham belgilanadi.

Sug'ura sohasni raqamlashtirish va unga raqamli texnologiyalarni joriy etishda olib borilgan tahlillar hamda yetakchi soha mutaxassilari fikrlarini umumlashtirgan holda quyidagilarni keltirib o'tish o'rinli deb hisoblaymiz. Bunda sug'urta sohasi, bozorni raqamlashtirish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Birinchidan, sug'urta xizmatlari uchun raqamli savdo kanallarini shakllantirish, bu esa yangi savdo kanallarining paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, mobil ilovalar, internet narsalar muhitidagi hamkorlarning qidiruv so'rovlari asosidagi savdolar va boshqalar. Bu kanal raqobati asosida quriladi.

Ikkinchidan, sug'urta bozorida raqobatning asosi shartnomani qo'llab-quvvatlash yoki sug'urtalangan shaxsning zararini qoplashda raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi.

Uchinchidan, sun'iy intellektdan foydalanish orqali "sug'urta bozorida axborot raqobatini shakllantirish, sug'urtalanuvchi va sug'urta obyektini

to'g'risidagi to'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida sug'urta dasturlarini individuallashtirish" imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Soya A.V. (2019) Straxovaniye v sifrovoy ekonomike. Voprosi studencheskoy nauki Vipusk №6 (34), iyun, 355-358 str.
2. Pichkov O.B., Ulanov A.A. (2017) Perspektivi i vozmojnosti sifrovoy ekonomiki na sovremennom etape razvitiya // Straxovoye delo. № 10. S. 12–16.
3. Kotlovskiy I. B., Sirichenko N. V. Innovatsionnie informatsionnie texnologii dlya straxovoy otrasli // Finansi. 2017. № 9. S. 38–44.
4. Sigantov A. A., Brizgalov D. V. (2018) Sifrovizatsiya straxovogo rinka: zadachi, problemi i perspektivi // Ekonomika. Nalogi. Pravo. 2018. № 2. S. 111–120.